

2023-yil yanvar-noyabr oylari uchun  
dastlabki ma'lumot



## ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-yil yanvar-noyabr oylarilarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi** (matnda TSA) **4 560,7 mln. AQSh dollariga yetdi** va **2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 716,8 mln. AQSh dollariga yoki 18,7 % ga ko'paydi.**



### TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollariga)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **4 560,4** - **18,7 %**



Saldo

(2022- y.: **3 843,5**)

2023- y.: **- 2 406,0** (2022 y.: **- 1 595,5**)



#### Eksport

2023- y.: **1 077,2** - **95,9 %**



Tovarlar: **1 064,9**

(2022- y.: **1 123,8**)



Xizmatlar: **12,3**



#### Import

2023- y.: **3 483,2** - **28,1 %**



Tovarlar: **3 413,7**

(2022- y.: **2 719,7**)



Xizmatlar: **69,5**

## Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti

va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo'shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiyligi hisob tizimi asosida yuritiladi.

TSAda eksport hajmi **1 077,2** mln. AQSh dollariga (**4,1** % ga kamaydi) va import hajmi **3 483,2** mln. AQSh dollariga (**28,1** % ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida **2 406,0** mln. AQSh dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR (2023-yil yanvar- noyabr, mln. AQSh dollari)

<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>XXR</b>	<b>Qozog'iston</b>	<b>Rossiya Federatsiya</b>	<b>Braziliya</b>
TSА – 1 293,4	TSА – 1 208,9	TSА – 512,7	TSА – 293,8	TSА – 209,8
Eksport: 0,3 Import: 1 293,1	Eksport: 58,9 Import: 1 150,0	Eksport: 505,1 Import: 7,6	Eksport: 209,4 Import: 84,4	Eksport: 0,3 Import: 209,5
28,4 %	26,5 %	11,2 %	6,4 %	4,6 %
<b>Qирғиз Республикасы</b>	<b>Мексика</b>	<b>AQSH</b>	<b>Туркия</b>	<b>Хиндистон</b>
TSА – 205,0	TSА – 199,3	TSА – 156,5	TSА – 96,2	TSА – 52,7
Eksport: 167,6 Import: 37,4	Eksport: - Import: 199,3	Eksport: 1,6 Import: 154,9	Eksport: 23,1 Import: 73,1	Eksport: 0,1 Import: 52,6
4,5 %	4,4 %	3,4 %	2,1 %	1,2 %

Andijon viloyati jahoning **81** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (**28,4 %**), XXRda (**26,5 %**), Qozog'istonda (**11,2 %**), Rossiya Federatsiyasida (**6,4 %**), Braziliya (**4,6 %**) va Qirg'iz Respublikasida (**4,5 %**) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Qozog'iston va Tojikiston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qozog'istonda 1,6 barobarga oshdi.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023-yil yanvar-noyabr mln. AQSh dollarri)

**Qozog'iston – 512,7**



**Qirg'iz Respublikasi – 205,0**



**Tojikiston – 21,0**



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobjiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## ANDIJON VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

*(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollar)*

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>1 112,8</b>	<b>1 433,9</b>	<b>1 293,4</b>
<i>Eksport</i>	0,6	0,8	0,3
<i>Import</i>	1 112,2	1 433,1	1 293,1
<b>XXR</b>	<b>384,9</b>	<b>567,3</b>	<b>1 208,9</b>
<i>Eksport</i>	72,7	53,3	58,9
<i>Import</i>	312,2	514,0	1 150,0
<b>Qozog'iston</b>	<b>315,2</b>	<b>418,7</b>	<b>512,7</b>
<i>Eksport</i>	305,6	410,8	505,1
<i>Import</i>	9,6	7,9	7,6
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>209,2</b>	<b>424,5</b>	<b>293,8</b>
<i>Eksport</i>	67,7	164,7	209,4
<i>Import</i>	141,5	259,8	84,4
<b>Braziliya</b>	<b>16,1</b>	<b>47,4</b>	<b>209,8</b>
<i>Eksport</i>	0,01	0,4	0,3
<i>Import</i>	16,1	47,0	209,5
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>294,6</b>	<b>423,5</b>	<b>205,0</b>
<i>Eksport</i>	266,4	390,0	167,6
<i>Import</i>	28,2	33,5	37,4
<b>Meksika</b>	<b>5,4</b>	<b>49,9</b>	<b>199,3</b>
<i>Eksport</i>	0,00001	0,00001	0,0
<i>Import</i>	5,4	49,9	199,3
<b>AQSh</b>	<b>56,7</b>	<b>66,3</b>	<b>156,5</b>
<i>Eksport</i>	0,3	0,2	1,6
<i>Import</i>	56,4	66,1	154,9
<b>Turkiya</b>	<b>81,9</b>	<b>99,5</b>	<b>96,2</b>
<i>Eksport</i>	24,6	38,2	23,1
<i>Import</i>	57,3	61,3	73,1
<b>Hindiston</b>	<b>14,1</b>	<b>34,6</b>	<b>52,7</b>
<i>Eksport</i>	0,1	1,0	0,1
<i>Import</i>	14,0	33,6	52,6

Davlatlar	2021-y.	2022-y.	2023-y.	
<b>Germaniya</b>	<b>19,1</b>	<b>35,7</b>	<b>40,7</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,9 18,2	0,7 35,0	0,3 40,4
<b>Belarus</b>	<b>3,8</b>	<b>8,1</b>	<b>34,2</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	1,5 2,3	3,2 4,9	28,7 5,5
<b>Slovakiya</b>	<b>5,9</b>	<b>11,0</b>	<b>28,3</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,0 5,9	0,001 11,0	0,0 28,3
<b>Ozarbayjon</b>	<b>6,5</b>	<b>18,5</b>	<b>23,9</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	5,4 1,1	18,0 0,5	23,8 0,1
<b>Tojikiston</b>	<b>4,2</b>	<b>8,8</b>	<b>21,0</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	1,7 2,5	7,4 1,4	20,5 0,5
<b>Afg'oniston</b>	<b>3,2</b>	<b>10,6</b>	<b>16,4</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	3,1 0,1	10,6 0,01	16,4 0,003
<b>Vetnam</b>	<b>3,6</b>	<b>0,7</b>	<b>15,7</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,4 3,2	0,01 0,7	0,03 15,7
<b>Italiya</b>	<b>12,6</b>	<b>12,8</b>	<b>14,8</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	2,2 10,4	4,4 8,4	2,4 12,4
<b>Polsha</b>	<b>11,1</b>	<b>10,0</b>	<b>14,6</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	1,2 9,9	1,3 8,7	0,5 14,1
<b>Chexiya</b>	<b>15,4</b>	<b>15,8</b>	<b>14,5</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,05 15,4	0,1 15,7	0,0 14,5



## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

*(2023-yil yanvar-noyabr)\**

	Hajm mln. AQSh dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>4 560,4</b>	<b>118,7</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	652,2	118,3	14,3
Xonobod sh.	98,7	116,2	2,2
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	73,0	342,5	1,6
Andijon	98,4	110,7	2,2
Baliqchi	41,1	94,7	0,9
Bo'ston	28,3	79,8	0,6
Buloqboshi	176,8	599,1	3,9
Jalaquduq	49,7	79,1	1,1
Izboskan	22,4	86,0	0,5
Ulug'nor	21,5	124,2	0,5
Qo'rg'ontep'a	42,0	54,3	0,9
Asaka	3 003,8	120,8	65,9
Marhamat	31,7	91,7	0,7
Shahrixon	70,1	68,8	1,5
Paxtaobod	24,1	87,6	0,5
Xo'jaobod	125,6	82,1	2,7

**Eng yuqori hajm,**  
mln. AQSh dollarlari



**Eng quyisi hajm,**  
mln. AQSh dollarlari



**Eng quyisi hajm,**  
mln. AQSh dollarlari



**Eng quyisi hajm,**  
mln. AQSh dollarlari



**Eng quyisi hajm,**  
mln. AQSh dollarlari




Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **65,9 %** ulush bilan **3 003,8** mln. AQSh dollarini, eng quyisi ulushni esa Ulug'nor tumani **0,5 %** ulush bilan **21,5** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan



## ANDIJON VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMILAKATLARI VA BOSHQA XORIJUY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, mln. AQSh dollarri, ulushi, % da)



2023-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **24,2** % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022-yilning mos davriga nisbatan **16,0** % ga kamayib, so'ngi uch yilda o'rtacha ko'rsatkichni qayd etdi.



Andijonning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 2022-yilning mos davriga nisbatan **36,7** % ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **75,8** % ni tashkil etdi.

Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023-yil yanvar-noyabr holatiga ko'ra, **1 103,7 mln. AQSh dollarini tashkil etdi.** Shundan eksport **964,5 mln. AQSh dollariga yetgan bo'lsa, import 139,2 mln. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.**



## ANDIJON VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023-yil yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari)

### Rossiya Federatsiyasi

TSA – 293,8  
Eksport – 209,4  
Import – 84,4



### Qozog'iston

TSA – 512,7  
Eksport – 506,1  
Import – 7,6



### Qirg'iz Respublikasi

TSA – 205,0  
Eksport – 167,6  
Import – 37,4



### Ozarbajyon

TSA – 23,9  
Eksport – 23,8  
Import – 0,1



### Belarus Respublikasi

TSA – 34,2  
Eksport – 28,7  
Import – 5,5



### Tojikiston

TSA – 21,0  
Eksport – 20,5  
Import – 0,5



### Moldova Respublikasi

TSA – 1,8  
Eksport – 1,3  
Import – 0,5



### Ukraina

TSA – 7,4  
Eksport – 4,4  
Import – 3,0



### Turkmaniston

TSA – 3,7  
Eksport – 3,4  
Import – 0,3



### Armaniston

TSA – 0,3  
Eksport – 0,3  
Import – -



Andijon viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori ulushi Qozog'iston (**46,5 %**), Rossiya Federatsiyasi (**26,6 %**) hamda Qirg'iz Respublikasi (**18,6 %**) bilan qayd etildi.

## ANDIJON VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollarari, ulushi, % da)



Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi

23,0 %

Jami eksportdagи ulushi

84,6 %

Jami importdagи ulushi

3,9 %



Andijon viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **1 047,0** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan, eksport hajmi **911,1** mln. AQSh dollarari, import hajmi esa **134,9** mln. AQSh dollariga yetdi.

Shuni ta'kidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iz Respublikasi, Belarus va Armaniston) o'rtaida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## ANDIJON VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyordi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyordi soni **422** taga yetdi va ular tomonidan **1 077,2** mln. AQSh dollarini qiymatidagi (*2022-yilning mos davriga nisbatan 4,1 % ga kamaydi*) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Andijon viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinnlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinnlarda – XSST**) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mln. AQSh dollarri		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
	Jami eksport	1 123,8	1 077,2	144,1	95,9	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	37,5	35,6	100,0	95,0	3,3	3,3
Ichimliklar va tamaki	2,0	5,5	15,1 b.	27,2 b.	0,2	0,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5,6	3,6	53,8	64,5	0,5	0,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xhash materiallar	10,7	1,1	48,6 b.	10,1	0,9	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,001	0,0002	88,2	30,7	0,0001	0,00002
Kimyoviy vositalar va shunga o'xhash mahsulotlar	25,4	19,1	12,0 b.	75,3	2,3	1,8
Sanoat tovarlari	258,4	221,9	135,4	85,8	23,0	20,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	423,7	498,7	133,3	117,7	37,7	46,3
Turli xil tayyor buyumlar	349,4	279,4	162,9	80,0	31,1	25,9
Xizmatlar	11,1	12,3	171,3	111,1	1,0	1,2

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **98,9 %** ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalar (**46,3 %**), turli xil tayyor buyumlar (**25,9 %**), sanoat tovarlari (**20,6 %**), kimyoviy vositalar (**1,8 %**) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**3,3 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollarri	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	33 652,3	93,7
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	802,1	95,0
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	640,3	7,1 b.
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	312,0	54,3
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	5 509,3	2,7 b.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilar	2 513,1	51,7
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	512,4	199,1
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	387,9	100,6
56-bo'limga kiritilgandan tashqari o'gitlar uchun xomashyo va mineral xomashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	121,0	159,5
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1 073,2	10,1
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraktsiyalangan	0,2	31,8
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; mumlar; texnik aralashmalar va preparatlari	-	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	17 200,2	79,5
Noorganik kimyo moddalar	615,2	144,5
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalar; xojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	585,8	3,6 b.
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	262,6	189,1


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollarri	2022-yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	204 735,8	97,1
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	5 325,7	20,6
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4 734,3	45,6
Ruda bo'limgan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 848,6	58,2
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalar</b>		
Avtomobillar (shu jumladan, havo transporti vositalari)	327 937,2	126,8
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	151 143,9	102,8
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'limgan qismlari ham)	9 832,5	89,3
Sanoat uchun maxsus bo'limgan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	7 635,9	118,1
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	259 026,9	81,8
Poyabzal	13 215,0	62,2
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	2 701,9	81,1
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebel	2 590,0	59,1

Andijon tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqgan mamlakat, agar kelib chiqgan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida MDH mamlakatlariga **964,5** mln. AQSh dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportdagi ulushi **89,5 %** ni tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, mln. AQSh dollari, ulushi, % da)



2023-yil yanvar-noyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Qirg'iz Respublikasi, XXR, Belarus, Ozarbayjon va Turkiya kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **94,4 %** ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-noyabr, % da)





Davlatlar	mIn. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Qozog'iston	410,8	505,0	134,4	123,0	1	1
Rossiya Federatsiyasi	164,7	209,4	2,4 b.	127,1	3	2
Qirg'iziston	390,0	167,6	146,4	43,0	2	3
Xitoy	53,4	58,9	73,3	110,3	4	4
Belarus	3,2	28,7	2,1 b.	9,0 b.	12	5
Ozarbajjon	18,0	23,9	3,3 b.	132,4	6	6
Turkiya	38,2	23,1	155,0	60,5	5	7
Tojikiston	7,4	20,5	4,5 b.	2,7 b.	8	8
Afg'oniston	10,6	16,4	3,4 b.	154,9	7	9
Ukraina	4,2	4,4	30,9	105,4	10	10
Eron Islom Respublikasi	1,0	3,8	186,9	3,9 b.	17	11
Turkmaniston	0,3	3,4	31,8	10,6 b.	26	12
Italiya	4,4	2,4	2,0 b.	54,0	9	13
AQSh	0,2	1,6	69,0	7,2 b.	30	14
Moldova Respublikasi	3,9	1,3	96,2	33,4	11	15
Pokiston	1,9	1,1	120,6	60,6	14	16
Latviya	2,3	0,9	3,2 b.	40,1	13	17
Bangladesh	0,7	0,8	14,5 b.	123,9	22	18
Polsha	1,3	0,6	103,3	43,1	15	19
Litva	0,1	0,4	12,7	7,7 b.	36	20



## ANDIJON VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023-yil yanvar-noyabr)\*

	Hajm mln. AQSh dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>1 077,2</b>	<b>95,9</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	108,8	107,8	10,1
Xonobod sh.	19,5	47,0	1,8
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	50,2	339,2	4,7
Andijon	42,8	104,6	4,0
Baliqchi	37,8	112,5	3,5
Bo'ston	25,4	78,0	2,4
Buloqboshi	11,4	55,9	1,1
Jalaquduq	42,6	75,3	4,0
Izboskan	12,9	73,0	1,2
Ulug'nor	19,3	183,7	1,8
Qo'rg'ontep'a	22,0	46,5	2,0
Asaka	544,1	111,5	50,5
Marhamat	14,7	54,9	1,4
Shahrixon	32,5	52,6	3,0
Paxtaobod	16,5	84,3	1,5
Xo'jaobod	75,7	68,8	7,0

Eng yuqori hajm,  
mln. AQSh dollarlari



Eng quyisi hajm,  
mln. AQSh dollarlari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **50,5 %** bilan **544,1** mln. AQSh dollarini, eng quyisi ulushni esa Buloqboshi tumani **1,1 %** bilan **11,4** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

 Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023-yil yanvar-noyabr oylarida **128,5** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatgich 2022-yilning mos davriga nisbatan **21,7** ming tonnaga ko'paydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qирг'из Республикаси (**55,1** %), Rossiya Federatsiyasi (**32,6** %), Qozog'iston (**6,4** %), Latviya (**2,2** %) hamda Turkiya (**1,6** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023-yil yanvar-noyabr oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **34,0 mln.** AQSh dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022-yilning mos davriga nisbatan **6,1** % ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi **3,2** % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2023-yil yanvar-noyabr, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<b>Uzum</b> (quritilgan uzumni qo'shgan holda)	<b>Karam</b>	<b>Gilos</b>	<b>Pomidor</b>
<b>2,9mln.</b> AQSH dollari	<b>1,6 mln.</b> AQSH dollari	<b>0,6 mln.</b> AQSH dollari	<b>2,1 mln.</b> AQSH dollari
<b>6,7 ming tonna</b>	<b>7,8 ming tonna</b>	<b>1,0 ming tonna</b>	<b>3,9 ming tonna</b>
 ↑ 73,9 %	 ↑ 86,6 %	 ↓ 36,6 %	 ↓ 86,0 %
<b>Shaftoli</b>	<b>Bodring</b>	<b>Qovun va tarvuz</b>	<b>Piyoz</b>
<b>1,5 mln.</b> AQSH dollari	<b>1,5 mln.</b> AQSH dollari	<b>6,4 mln.</b> AQSH dollari	<b>2,2 mln.</b> AQSH dollari
<b>2,2 ming tonna</b>	<b>2,5 ming tonna</b>	<b>41,5 ming tonna</b>	<b>12,5 ming tonna</b>
 ↑ 59,3 %	 ↑ 2,4 b.	 ↑ 1,3 b.	 ↑ 108,9 %



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023-yil yanvar-noyabr)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSh dollarari	Ulushi, % da *
Qirg'iz Respublikasi	97 610,4	18 585,7	55,2
Rossiya Federatsiyasi	12 872,3	10 979,7	32,6
Qozog'iston	13 993,6	2 143,5	6,4
Latviya	2 257,8	739,5	2,2
Turkiya	280,0	535,7	1,6
XXR	530,0	367,5	1,1
Belarus	167,6	255,8	0,8
Germaniya	40,0	21,8	0,1
Moldova Respublikasi	41,7	15,2	0,05
Mongoliya	14,7	7,4	0,02
Ukraina	0,6	0,5	0,001

\* qiyamat ifodasidan



2023-yil yanvar-noyabr oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiyamat jihatidan eng katta hajmi Qirg'iz Respublikasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **55,2 %**), bu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasiga eksport hajmidan **1,7** barobar ko'p.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagি mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xomashyosini o'rniга tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023-yil yanvar-noyabr oylari yakuni bo'yicha **461,8 mln.** AQSh dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **42,9 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **13,0 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**56,0 %**), paxtadan yigirilgan ip (**25,5**), naqshli mato (**11,5 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **260** turdag'i to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **23** ta davlatiga eksport qilindi.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)

	2022-yil	2023-yil
<b>Jami:</b>	<b>530 513,9</b>	<b>461 780,0</b>
Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	316 115,6	258 423,3
Paxtadan yigirilgan ip	125 198,5	117 777,7
Naqshli mato	45 206,9	53 329,7
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	13 039,0	11 810,7
Gilamlar	10 565,7	6 699,7
Paxtadan gazlamalar	6 918,6	6 695,5
Ipak mahsulotlari	8 402,2	7 354,0

## DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-noyabr, ming AQSh dollari)

		2022-yil	2023-yil	O'sish sur'ati, % da
	Rossiya Federatsiyasi	113,5	138,1	121,6
	Qirg'iz Respublikasi	288,2	114,5	39,7
	Belarus	2,3	27,0	11,8 b.
	Qozog'iston	9,5	23,0	2,4 b.
	Tojikiston	5,1	16,5	3,2 b.
	Afg'oniston	-	13,7	-
	Ukraina	4,0	4,1	102,1
	Ozarbayjon	1,7	2,4	136,7
	XXR	53,0	2,0	3,9
	Italiya	4,4	1,9	43,0
	Moldova Respublikasi	3,7	1,2	31,6
	Turkiya	35,9	0,7	2,1
	Litva	-	0,4	-
	Eron Islom Respublikasi	0,9	0,4	37,7
	Portugaliya	-	0,3	-
	Boshqalar	7,8	0,5	6,0




Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikasiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to'qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya Federatsiyasi (39,8 % – 138,1 mln. AQSh dollari), Qirg'iz Respublikasi (33,0 % – 114,5 mln. AQSh dollari) va davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdarligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o‘z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o‘z o‘rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **12 303,7** mln. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining **1,1 %** ini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **11,1 %** ga ko‘paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish (**40,5 %**), moliyaviy xizmatlar (**40,3 %**), safarlar (turizm) (**10,1 %**) va transport xizmatlar (**7,3 %**) hissasiga to‘g’ri kelgan.

import


## ANDIJON VILOYATINING IMPORTI



2023-yilning yanvar-noyabr oylarida import hajmi **3 483,2** mln. AQSh dollarini va 2022-yilning mos davriga nisbatan **28,1** % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**65,2** %), sanoat tovarlari (**18,9** %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (**7,8** %) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2023-yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023-yilning yanvar-noyabr oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **860,8** mln. AQSh dollariga ko'paydi va **3 413,7** mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa **69,5** mln. AQSh dollariga yetdi.



## ANDIJON VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-noyabr, yillar kesimida)

XSST tarkibi	mIn. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>2 719,7</b>	<b>3 483,2</b>	<b>143,8</b>	<b>128,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,5	20,6	78,6	132,9	0,6	0,6
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,3	20,9 b.	2,5 b.	0,005	0,01
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	20,3	22,4	109,9	110,3	0,8	0,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	14,8	29,2	157,7	197,8	0,5	0,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1	2,9	54,5	2,7 b.	0,04	0,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	194,7	272,0	174,9	139,7	7,2	7,8
Sanoat tovarlari	611,4	657,5	183,6	107,5	22,5	18,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	1593,5	2272,7	129,8	142,6	58,6	65,3
Turli xil tayyor buyumlar	101,5	136,1	129,5	134,1	3,7	3,9
Xizmatlar	166,8	69,5	183,4	41,6	6,1	2,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-noyabr)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirk hayvonlar</b>		
Tirk hayvonlar, 03 bo'limga kiritilgan hayvonlardan tashqari	5 326,9	89,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 001,3	2,1 b.
Sabzavotlar va mevalar	3 068,2	135,3
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	2 214,6	2,3 b.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	323,8	2,5 b.
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	7 346,2	104,3
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	7 145,1	110,1
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	4 982,3	136,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari, boshqa joyda tasniflanmagan	1 775,5	104,9
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Ko'mir, koks va briketlar	17 800,6	2,0 b.
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	9 669,6	165,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	1 729,2	119,9 b.
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	2 708,3	2,5 b.
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	220,6	718,4 b.
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalar	88 363,1	148,5
Birlamchi shakldagi plastmassalar	56 436,8	122,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	49 622,9	126,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	27 841,6	141,3


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2022-yilga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	226 875,5	90,5
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	164 025,7	131,3
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	150 989,7	108,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xhash mahsulotlar	65 110,0	113,9
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalarini</b>		
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	1 434 825,0	123,7
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	230 444,5	147,2
Sanoat uchun maxsus bo'Imagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari, boshqa joyda tasniflanmagan	215 610,0	184,7
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblar, boshqa joyda tasniflanmagan, va ularning elektr qismlari (boshqa joyda tasniflanmagan elektr maishiy asboblarning elektr bo'Imagan qismlari ham)	168 008,2	2,3 b.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari, boshqa joyda tasniflanmagan	65 656,5	154,8
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar uchun tirkaklar, yostiqlar va shunga o'xhash tikilgan mebel	40 757,2	104,9
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	18 543,8	146,9
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	7 380,5	2,1 b.



2023-yil yanvar-noyabr natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **4,0 %** ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **38,8 %** ga ko'paydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-noyabr, *mln. AQSh dollarri, ulushi, % da*)



2023-yil yanvar-noyabr oylarida Andijon viloyati **72** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, XXR, Braziliya, Meksika, AQSh, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya) jami importning **90,7 %** qismini tashkil etdi.



## VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-noyabr, % da)








**ANDIJON VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI  
HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI**  
(yanvar-noyabr, yillar kesimida)

Davlatlar	mln. AQSh dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Koreya Respublikasi	1 433,1	1 293,2	128,9	90,2	1	1
Xitoy	514,0	1 150,0	164,6	2,2 b.	2	2
Braziliya	46,9	209,5	2,9 b.	4,5 b.	8	3
Meksika	49,9	199,3	9,3 b.	4,0 b.	7	4
AQSh	66,1	154,9	117,3	2,3 b.	5	5
Rossiya Federatsiyasi	259,8	84,4	183,5	32,5	3	6
Turkiya	61,4	73,0	107,1	119,0	6	7
Hindiston	33,6	52,6	2,4 b.	156,4	10	8
Germaniya	34,9	40,4	191,5	115,5	9	9
Qirg'iziston	33,5	37,3	118,7	111,3	11	10
Slovakiya	11,0	28,3	185,1	2,6 b.	13	11
Vietnam	0,7	15,7	21,3	23,1 b.	42	12
Chexiya	15,7	14,5	102,1	92,4	12	13
Polsha	8,7	14,1	87,7	162,3	14	14
Italiya	8,4	12,4	80,6	148,2	16	15
Tailand	8,6	11,6	69,5	135,4	15	16
Eron Islom Respublikasi	8,3	10,4	97,8	125,8	17	17
Tayvan	4,3	9,7	144,1	2,3 b.	20	18
Shveytsariya	68,6	8,4	11,0 b.	12,3	4	19
Qozog'iston	7,9	7,6	82,0	96,7	18	20



## ANDIJON VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023-yil yanvar-noyabr)


	Hajm mln. AQSh dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Andijon viloyati</b>	<b>3 483,2</b>	<b>128,1</b>	<b>100,0</b>
Andijon sh.	543,4	120,6	15,6
Xonobod sh.	79,1	182,6	2,3
<i>tumanlar:</i>			
Oltinko'l	22,8	350,3	0,7
Andijon	55,6	116,0	1,6
Baliqchi	3,3	33,6	0,1
Bo'ston	2,9	100,1	0,1
Buloqboshi	165,4	1807,5	4,7
Jalaquduq	7,0	114,4	0,2
Izboskan	9,5	113,2	0,3
Ulug'nor	2,2	32,8	0,1
Qo'rg'ontep'a	20,0	66,6	0,6
Asaka	2 459,8	123,0	70,6
Marhamat	17,0	217,1	0,5
Shahrixon	37,6	94,0	1,1
Paxtaobod	7,6	95,5	0,2
Xo'jaobod	49,9	116,3	1,4



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Asaka tumani **70,6** % bilan **2 459,8** mln. AQSh dollarini, eng quyisi ulushni esa Bo'ston tumani **0,1** % bilan **2,2** mln. AQSh dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI (2023-yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)



2023-yilning yanvar-noyabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi **69,5** mln. AQSh dollarini yoki jami import hajmining **2,0** % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan **58,4** % ga kamaydi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi Intellektual mulkdan foydalanganlik uchun to'lovlar, boshqa joyda tasniflanmagan (**63,1** %), amaliy xizmatlar (**22,2** %) ga tegishli bo'ldi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALAR IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023-yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **2 272,7 mln. AQSh dollarini** tashkil etib, 2022-yilning shu davriga nisbatan **42,6 %** ga ko'paydi va importning umumiyligi hajmidagi ulushi **65,2 %** ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023-yil yanvar-noyabr)




2023-yil yanvar-noyabr oylarida mashina va transport asbob-uskunalar importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **679,1 mln. AQSh dollariga** ko'paydi. Ushbu tovarlarni Andijon viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Koreya Respublikasi (**914,2 mln. AQSh dollari, 40,2 %**), XXR (**699,6 mln. AQSh dollari, 30,8 %**), Meksika (**173,3 mln. AQSh dollari, 7,6 %**), Braziliya (**145,4 mln. AQSh dollari, 6,4 %**) va AQSh (**117,6 mln. AQSh dollari, 5,2 %**) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023-yil yanvar-noyabr oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **657,5** mln. AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **7,5 %** ga ko'paydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **18,9 %** ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023-yil yanvar-noyabr, ulushi, % da)

**322,0 mln. AQSH doll.  
ulushi – 49,0 %**



XXR

**162,7 mln. AQSH doll.  
ulushi – 24,7 %**



Koreya  
Respublikasi

**43,9 mln. AQSH doll.  
ulushi – 6,7 %**



Braziliya

**30,8 mln. AQSH doll.  
ulushi – 4,7 %**



Rossiya  
Federatsiyasi

**19,9 mln. AQSH doll.  
ulushi – 3,0 %**



Meksika



Sanoat mahsulotlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**226,9** mln. AQSh dollar), rezina buyumlari (**164,0** mln. AQSh dollar), metallardan tayyorlangan buyumlar (**151,0** mln. AQSh dollar), to'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar (**65,1** mln. AQSh dollar) va boshqalardan tashkil topgan.